



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI BOJXONA QO'MITASI

CUSTOMS COMMITTEE UNDER THE MINISTRY OF ECONOMY AND FINANCE
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 3. tel. (78) 120-76-00, www.bojxona.uz, customs@exat.uz, info@customs.uz

2025-yil "22" may

№ 18/05-25-00197

Bojxona brokerlari uyushmasi

Toshkent sh., Yashnobod tumani, Farg'onay yo'li ko'chasi, 23

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi 249-son qarori bilan “Mahsulotlar (tovarlar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogi” va 2025-yil 28-apreldagi 263-son qarori bilan “Mahsulotlar (tovarlar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogini yuritish hamda undan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlangan. Unga ko’ra:

Mahsulotlar (tovarlar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogi (keyingi o‘rinlarda — milliy katalog) — mahsulot va xizmatlarga biriktirilgan mahsulot va xizmatlarning identifikatsiya kodlari yuritiladigan hamda Internet jahon axborot tarmog‘idagi rasmiy veb-saytida (tasnif.soliq.uz) joylashtirilgan katalog;

Mahsulot va xizmatlarning identifikatsiya kodi (keyingi o‘rinlarda — **MXIK**) — har bir mahsulotlar va xizmatlarga biriktirish hamda ularni identifikatsiya qilish uchun mo‘ljallangan 17 xonali raqamdan (harfdan) iborat bo‘lgan noyob kod hisoblanadi.

MXIK quyidagi sxema bo‘yicha kodlashtiriladi:

000	00	000	000	000	000
guruh	sinf	pozitsiya	subpozitsiya	brend	atribut
dastlabki 2 — 5-raqamlar TIF TN kodi					

Shtrix-kodi mavjud bo‘lmagan tovarlarga subpozitsiya kodidan so‘ng brend va atribut kodlariga «000000» beriladi.

Milliy katalog quyidagi holatlarda va maqsadlarda ishlataladi:

elektron hisobvaraq-fakturalarni rasmiylashtirishda;

onlayn-NKT cheklarida;

bojxona yuk deklaratsiyasini to‘ldirishda (bojxona chegarasidan birinchi marta olib kirilayotgan tovarlar bundan mustasno);



Н.К.Мусамухамедов
Раис ўринбосари
22.05.2025 йил.
№ 7-396349/25

qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa holatlarda.

Shuningdek, “Bojxona yuk deklaratsiyasi (BYuD)ni to‘ldirish tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomaga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilib (*ro’yxat raqami 2773-10, 2025-yil 3-yanvar*), bojxona yuk deklaratsiyasini to‘ldirishda foydalaniladigan hujjatlar va ma’lumotlar turlari tasniflagichiga (*yo’riqnomaga 12-ilova*) yangi hujjat turi kiritilgan.


T/r	Hujjat nomi	44-grafa tartib raqami	Hujjat kodi
108 ³ .	Mahsulotlarning (tovar va xizmatlarning) identifikatsiya kodi	875	MXIK

Ya’ni, tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvida (*MXIK kodi mavjud bo’lsa*) BYuDning 44-grafasi 875 raqami bilan tovar MXIK kodi ko‘rsatilishi lozim.

Hozirgi vaqtida tasnif.soliq.uz sayti ma’lumotlariga ko‘ra, jami 483 151 ta MXIK kodlari mavjud (shundan 482 287 tasi (99,8%) mahsulotlar).

Bunda, shtrix kodli tovarlar soni 262 988 ta (54,4%), o‘lchov birligi biriktirilgan MXIKlar soni 481 668 ta (100%), imtiyozga ega MXIKlar soni 37 796 ta (7,8%), guruhlarning umumiyligi soni 115 ta, kartochkasi to‘ldirilgan tovarlar (xizmatlar) soni 134 684 ta (27,9%) shundan, markirovka qilinganlari 82 487 ta (17,1%) va operator tomonidan yaratilganlari 52 197 tani (10,8%) tashkil etadi.

Shuningdek saytda, MXIK nomi, tovarlarga biriktirilgan (qat’iy) o‘lchov guruhi, o‘lchov birligi va qadoqlar, foydalanishga tavsiya etilgan o‘lchov guruhi va o‘lchov birligi, imtiyoz ID, markirovkalanganlik belgisi, QR kodi, shtrix kodi to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda **tovarlar rasmlari ham keltirilgan**. Masalan,



Ushbu ma’lumotlar bojxona rasmiylashtiruvini to‘g‘ri amalga oshirilishida mihim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, vakolatingiz doirasida mazkur o‘zgarishlar to‘g‘risida shuningdek, BYuDlarni to‘ldirishda foydalaniladigan dasturiy ta’mintolarga zarur o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilishi lozimligi yuzasidan



Н.К.Мусамухамедов
Раис ўринбосари
22.05.2025 йил.
№ 7-396349/25

deklarant, bojxona brokeri va bojxona rasmiylashtirushi bo'yicha mutaxassislarga xabar berishingizni so'raymiz.

Ijro: I.Abdijamilov
tel: 72-34



Н.К.Мусамухамедов
Раис ўринбосари
22.05.2025 йил.
№ 7-396349/25

Хуяжат электрон рақамли имзо билан тасдиқланган. "Электрон рақамли имзо түғрисида"ги Қонуннинг 7-моддасига асосан электрон рақамли имзо ва қўлда қўйилган имзо бир хил аҳамиятга эга. Хуяжатнинг ҳаққонийлигини текшириш учун QR-кодни сканерланг.